



## MAKTABGACHA TA'LIM DIDAKTIKASINING AHAMIYATI

Andijon davlat pedagogika instituti  
Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi  
Qo'ldasheva Ro'zixon Tojiboy qizi

**Doi:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.15230668>

**Anotatsiya.** Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim didaktikasi, maktabgacha yoshdagi bolalar ta'limi va o'qitish, bolalarga obyektiv dunyoni chuqurroq anglashga ko'maklashish haqida so'z yuritiladi. Hozirgi sharoida maktabgacha ta'lim tizimi faoliyatida pedagogik texnologiyalar, interfaol usullar keng foydalanilmoqda. Turli xil mashg'ulot jarayonida materiallardan samaraliy foydalanish yo'llarini tarbiyachi va o'qtuvchilarga yetkazib berish pedagogik fani oldida turgan dolzab muammolardan biridir.

**Kalit so'zlar:** ta'lim, innovatsiya, ta'lim texnologiyasi, pedagogik o'yin usullari, ijodiy fikirlash, badiiy tasavvur, dunyoqarash, o'quv materiallari, didaktik o'yinlar. Ta'lim va tarbiya, munosabat, ijtimoiylashish.

Maktabgacha ta'lim didaktikasi - maktabgacha yoshdagi bolalar ta'limi va o'qitish nazariyasi hisoblanib uning maqsadini belgilaydi, maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlantirish va ularni maktabdagi o'qishga tayyorlashni ta'minlovchi ta'limning mazmuni, metodlar va tashkiliy shakllarni ishlab chiqaradi. Maktabgacha ta'lim didaktikasining asoschilari Y.A.Komenskiy va K.D.Ushinskiy tadqiqotlarida yoritilgan. Y.A.Komenskiyning "Onalar maktabi" nomli asarida maktabgacha ta'limning maqsadi - atrof-atrof-muhit haqidagi oddiy bilimlarni o'zlashtirish axloqiy odatlarni rivojlantirish va bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash ekanligi ta'kidlab bolalarga beriladigan bilimlarning ilk dasturini belgilab beradi. Oldin rejani tarbiya va ta'limning boshlanishi maktabgacha yoshdadir, degan g'oyani ilgari surgan edi. K.D.Ushinskiy maktabgacha ta'limning vazifasi aqliy salohiyat va nutq qobiliyatlarini rivojlantirishdan, ularning maktabga tayyorlashdan iboratdir deb ta'kidlaydi. Bunda u ko'rgazmalilikka mashg'ulotlarning qiziqarligiga tayanish zarurligini uqtiradi. Shuningdek maktabgacha ta'lim tashkilotlari dasturiga kiritish zarur bo'lgan bilimlar doirasini belgilab beradilar. Bular tabiat jamiyat kishilar mehnati buyumlar va materiallar haqidagi bilimlardir. Ularning ta'kidlashicha bilimlar dasturlarini barcha bolalar o'zlashtira olishi lozim va buning uchun bolalar imkoniyatlarini ularni o'qitish metodlarini o'rganish o'yin va mashg'ulotlarni ular bilan aloqadorlikda qo'llash lozimdir. Bu g'oyalar maktabgacha ta'lim didaktikasidagi tadqiqotlar yo'nalishini belgilab berdi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqini o'stirish nazariyasini E.I.Tixeeva ilmiy jihatdan asoslab berdi. U buyumlar kishilar mehnati tabiat hodisalari haqidagi bilimlarni mazmunini kichik va katta maktabgacha yoshdagi bolalar yoshini hisobga olgan holda belgilab atrof-muhit haqidagi bilimlar bolalar lug'atini boyligini o'stiridagi o'rnini bolalar tasavvurlarni shakllantirishga va qiziqarli mashg'ulotlar turlarini ularni o'tkazish metodlarini ishlab chiqdi. Y.I.Tixeeva ta'limning ko'rgazmali bo'lishini bolalar faoliyatiga tayanish zaruriyatlarini uning o'yin bilan bog'liqligini isbotladi o'qitish muayyan bilimlar davorasi va nutq ko'nikmalarining tarbiyachi tomonidan berilishi va uni bolalar tomonidan o'zlashtirilishidan iborat faoliyat sifatida ifodalab berdi. L.S.Vigodskiy psixolog olim maktabgacha ta'limning dasturiligi haqidagi masalani ko'tarib chiqdi. U maktabgacha yoshdagi bolalarga mo'ljallangan bilimlarning muntazamlilik prinsipiga asoslab, maktabgacha yoshdagi o'qish dasturlarini maktabdagi ta'lim dasturlaridagi farqli yoritib berdi. u ta'limning maktabgacha yoshdagi bolalar kamoloti va uning maktabdagi ta'lim ishlarning mazmuni shundagina ko'chirib qo'ymaslikka chaqirdi.

Maktabgacha ta'lim didaktikasining rivojlanishida maktabgacha pedagogika sohasi bo'yicha olim A.P.Usova tadqiqotlari ta'lim prinsiplarining ahamiyati katta bo'ldi. U maktabgacha yoshdagi bolalarni o'yin ta'lim sensor tarbiya pedagogika jarayonlarini va xalq amaliy ijodiyoti masalalarni ilmiy jihatdan asoslab berdi. U maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi o'quv jarayonlarning tashkiliy shakllari va metodlarni bolalar har tomonlama tarbiyalash va rivojlantirishdagi ularning maktabga



tayyorlashdagi ahamiyatini ko'rsatib berdi. Uning rahbarligida bolalar bog'chasi dasturlari ishlab chiqilgan. O'qitish jarayonida maktabgacha yoshdagi bolalarda shu yoshdagi bolalarga xos bo'lgan va katta yoshli kishilar faoliya tiga kirgan bilish hissiy obrazli tafakkur kabi qobiliyatlarni rivojlantirish g'oyalari A.V.Zaporojes va N.N.Podyakovlar ilmiy jihatdan tadqiqot qildilar. Bu esa maktabgacha ta'lim tashkilotidagi talimiy jarayonlarni rivojlantiruvchilardan biri hisoblandi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama shakllantirish ularni bilan ko'nikma g'oyalarni yanada mustahkamlab borishda ularni o'sha muhitga moslashishi kerakligi haqida ham z fikrlarimizni bildirib o'tak bo'ladi ya'ni maktabgacha yoshdagi bolalar dastlabki g'oyalarni maktabgacha ta'lim tashkilotlaridan olib boshlaydi va u tashkilotlaridagi tarbiyachilar ularga beratirgan bilimlar orqali bu bilimkonik va malakalarni sekin astalik bilan mustahkamlab boradi. Maktabgacha ta'lim didaktikasi muammolarni nazariy va amaliy tarzda ishlab chiqish maktabgacha ta'lim-tarbiya dasturida "Mashg'ulotlarda ta'lim berish" degan bo'lim ochish imkoniyatini yaratdi.

Didaktika pedagogik fan sohasi sifatida o'qitishning mohiyatini yorituvchi kategoriyalar va tushunchalar bilan ifodalanadi. Maktabgacha pedagogikaning asosiy kategoriyalari: ta'lim, bilan, ko'nikma, malaka, ma'lumot, tarbiya, rivojlanish va shakllanishdir.

Kategoriya - fanning mohiyatini ifoda etuvchi eng muhim asosiy tushuncha.

Ta'lim - bu ta'lim oluvchiga maxsus tayyorlangan mutaxassislar yordamida bilim berish va ulardagi ko'nikma hamda marakalarni shakllantirish jarayoni bo'lib bu bolalarning shaxs sifatida hayotga va mehnatga ongli ravishda tayyorlash vositasidir. Ta'limning asosiy vazifasi ta'lim oluvchini o'qitishdan iborat. Shuningdek u oila ishlab chiqarish va va ma'lumot berish vazifalarini bajaradi.

Ta'lim berish- ta'lim beruvchining intellektual salohiyatlarini yuksaltirishga qaratilgan pedagogik faoliyat bo'lib, u shaxsning aqliy faoliyatini rivojlantirish, o'qish o'qitish jarayonlarini mazmunan mohiyatini ongli ravishda anglab yetishlari orqali amalga oshiriladi.

Ta'lim - o'qitish jarayonida tarbiyalanuvchilar tomonidan egallangan bilim, ko'nikma, malakalarni, o'zida ifoda etadi.

Bilim - bu ijtimoiy tarixiy, insoniyat hayoti davomida to'p, amalda sinovdan o'tgan va obyektiv dunyoni chuqurroq anglashga, hamda o'zgartirishga yo'naltirilgan tabiat, jamiyat, tafakkur va faoliyat usullari qonuniyatlari haqidagi ilmiy tushunchalarning yaxlit va tizimlashtirilgan majmadir. Bilan o'z navbatida kundalik, ilmiy, nazariy, bilimlarga bo'linadi. Insonning jamiyatda muomala va o'zining tushkunliklarida o'z aktini topadi ko'nikmalar bilimlar asosida tarkib topadi va o'z ichki avval tirgan malakalarini oladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

1. Atayeva N. Salayeva M, Hasanov S. Umumiy pedagogika. T., 2013y.
2. Avliyoqulov N., Musaeva N., Pedagogik texnologiyalar. T., 2008y.
3. Zunnunov A., Maxkamov U., Didaktika ta'lim nazariyasi. T., Sharq, 2006y.
4. Mavlonova R., Vohidova N., Rahmonqulova N. Pedagogika nazariyasi va tarixi. Fan – texnologiyalar T., 2010 y.
5. Mahmudov A.X. Uzliksiz ta'lim jarayonida kompetenlik yondashuvini joriy qilishning didaktik asoslari. 2012 y.